

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING O'QUVCHILARDA DASTLABKI KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Totliyev O'.X.

SamDU doktoranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini darslarda aqliy yuklamasini oshishi tufayli o'rganilayotgan mavzuga bo'lgan qiziqishini va dars davomida ularning faoliyatini qanday qo'llab-quvvatlash kerakligi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, o'qituvchi darsni qiziqarli va rangbarang, eng muhimi, o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otadigan yo'llar haqida ham atroflicha fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, metodika, aqliy yuklama, dastlabki bilim.

МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПЕРВИЧНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У УЧАЩИХСЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Тотлиев У.Х.

Докторант СамГУ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается, как поддержать интерес учащихся младших классов к предмету и их деятельность на уроке за счет увеличения умственной нагрузки на уроках. Также преподаватель тщательно продумает, как сделать урок интересным и красочным, а главное, вызвать интерес учащихся к изучаемому предмету.

Ключевые слова: компетентность, методика, умственная нагрузка, предварительные знания.

METHODS OF FORMING PRIMARY COMPETENCIES IN STUDENTS OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS

Totliyev O.Kh.

Doctoral student of SamSU

ABSTRACT

This article discusses how to support elementary school students' interest in the subject and their activities during the lesson due to the increase in mental load in the lessons. Also, the teacher will think carefully about ways to make the lesson interesting and colorful, and most importantly, to arouse the students' interest in the subject being studied.

Key words: competence, methodology, mental load, preliminary knowledge.

Zamonaviy ta'lim muassasalari ijtimoiy faol, ijodiy tafakkurga ega shaxsni, bitiruvchilarda axborot oqimiga yo'naltirilgan malakalarni shakllantirishga, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, mustaqil ta'lim, mavjud bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirishni o'z oldiga qo'ygan.

Umumiy o'rta ta'lim mazmunini takomillashtirishning hukumat strategiyasida umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatining asosiy natijalari o'z-o'zidan bilim va malakalar tizimi bo'lishi shartligi aniq belgilab berilgan, intellektual, huquqiy-fuqarolik, kommunikasion, axborot va boshqa sohalar asosiy kompetentlik jamlanmasi shakllanishi zarur. Bu ta'limga an'anaviy yondashuv bilan aloqador inson qobiliyati bilan o'quv syujetlari hamda ta'limiy vaziyatlari doirasida samarali harakat qilishga qodirligi bilan bog'liq. Kompetentli yondashuv birinchi o'ringa ta'lim oluvchining axborotlarni egallashini emas, balki hayotda yuzaga keladigan muammolarni hal etish malakasini qo'yadi.

Pedagogik doiralarda kompetentli yondashuv muammosining muhokamasi davrida ko'pincha pozisiya so'zi tilga olinadi, an'anaviy ta'limda "kompetentlilik tushunchasi hech qanday yangicha tamoyilli yondashuvni qo'shmaydi", kompetentlilik – maktablarda allaqachon ishlatiladigan tushunchaning yangi talqinidir [8; 66-b.].

Kompetentli yondashuv masalalarining tarixiy ildizlari Sharq mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abdulla Avloniy asarlarida aks etgan. Tarixiy meroslarimizda kompetensiyaviy bilim olishga yo'naltirilganlik g'oyalarining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati va muhimligi masalalari haqida ko'plab fikr-mulohazalar bayon etilgan.

O.A.Abdullina, Ye.M.Borisova, L.S.Vygotskiy, E.F.Zeyer, A.N.Leont'yev, M.I.Lukyanova, A.K.Markova, S.L.Rubinshteyn va boshqalar o'z ilmiy ishlarida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarida metodik kompetentliligini shakllantirish, ularni axborot bilan ishlash ko'nikmalarini o'zlashtirish faoliyatiga tayyorlashning psixologik-pedagogik asoslari haqida e'tiborga molik fikrlarni ilgari surishgan bo'lishsa O.Abduquddusov, R.X.Djurayev, U.I.Inoyatov, Z.K.Ismoilova, N.A.Muslimov, N.Nishonaliyev, Q.T.Olimov, X.F.Rashidov, O'.Tolipov, A.R.Xodjaboyev, D.O.Ximmataliyev, Sh.C.Sharipov va boshqalar ilmiy-

tadqiqotlarida bo‘lajak o‘qituvchilarda metodik tayyorgarligi xaqidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, malakali kadrlar tayyorlash masalasini ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil etishgan.

Ko‘rgazmalilik jarayonini optimallashtirish va darsning namoyish etish samarasini oshirish uchun multimediali proyektordan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Taqdimotlar o‘quv jarayonini jonlantirish va ta‘lim motivatsiyasini oshirish imkonini beradi. O‘qituvchi o‘quvchilarning qobiliyatlarini, motivatsiyasini, yosh va psixologik xususiyatlarini farqlash uchun zarur tayyorgarlikka ega bo‘lishi kerak.

E.F.Zeyer mutaxassisning “umumiy kasbiy bilimlari, ko‘nikmalari va qobiliyatlarini bir-biriga bog‘lash qobiliyati, uning kompetentli ekanligini aks ettiradi, shuningdek, turli kasblar va mutaxassisliklarga umumiy axborot kompetentligilar xos bo‘ladi”, deb ta‘riflagan [91; 93-b.].

N.Ye.Kostileva professional kompetentlik o‘qituvchini tajriba, nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va jiddiy shaxsiy xususiyatlarga asoslangan murakkab psixologik ta‘limi, pedagogik faoliyatni amalga oshirishda o‘qituvchining tayyorligini belgilashdan iborat [1; 24-b.].

O.B.Yepisheva metodik kompetentligini va pedagogik salohiyat – bu shaxsni axborot kompetentligi va pedagogik faoliyat uchun bilim va tajribaga asoslangan umumiy tayyorgarlik darajasi deganidir. Shu bilan birga, muallif, axborot kompetentligi va pedagogik mahorat o‘qituvchining ajralmas xarakteristikasi bo‘lib xizmat qilishi mumkinligini ta‘kidlaydi, chunki u o‘zgaruvchan professional sharoitda mustaqil ravishda va mas‘uliyatli harakat qilish qobiliyatida ifodalanadi [6; 42-b.].

Shuningdek, Yu.V.Senko professional pedagogik kompetentlikni “o‘qituvchining ajralmas tavsifi sifatida namoyon etishi, uning qobiliyatini rivojlantirish va professional rejani ishlab chiqish va amalga oshirishga tayyorligini ko‘rsatadi” deb ta‘riflagan [4; 92-b.].

Tadqiqotchilar, o‘qituvchining professional kompetentligi, kasbiy mahoratining tuzilishi eng kamida, professional bilim, kasbiy malaka va professional jihatdan muhim shaxsiy xususiyatlarni o‘z ichiga olishi kerakligini ta‘kidlaydi.

A.K.Markova professional pedagogik kompetentlikni: “Bu o‘qituvchining mutaxassislik sohasidagi bilimlar va malaka hamda faoliyat vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan me‘yoriy qoidalarni anglashidir”, deya ifodalagan; pedagogik kompetentlikni amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan psixologik xususiyatlarga ega bo‘lish va standartlarga muvofiq haqiqiy professional faoliyatni amalga oshirish zarurligini ta‘kidlagan. Tadqiqotchi o‘qituvchilar beshta kompetentlik (pedagogik faoliyat kompetentligi, pedagogik muloqot kompetentligi, o‘qituvchi shaxsiy kompetentligi, ish natijalari, o‘quv va ta‘lim kompetentligi)ga ega bo‘lish zarur degan xulosaga keldi [116]. O‘qituvchi beshta axborot kompetentligi xususiyatlariga

ega bo'lishga harakat qilishi zarur. Ayrim o'qituvchilar ish faoliyatida mazkur kompetentlik xususiyatlari yetarlicha yuqori darajali ekanligini ko'ramiz (kasbiy tayyorgarligi yuqori va talabalarga ta'lim berishda yaxshi natijalarga erishadi, o'qituvchining shaxsi o'zini to'liq namoyon etadi, pedagogik faoliyati, pedagogik muloqoti uning kompetentli o'qituvchi sifatida ko'rsatadi).

Shunday qilib, tadqiqotchilar o'qituvchi kompetentligini kasbiy malakali sifat deb hisoblaydilar, bu esa o'qituvchining professional kompetentligi tarkibida kamida professional bilim, kasbiy mahorat va professional jihatdan muhim shaxsiy xususiyatlarni o'z ichiga olishi kerakligini ko'rsatib beradi.

Shu bilan birga, ba'zi tadqiqotchilar o'qituvchining umumiy va maxsus bilimlarga egaligi, boshqalari esa kasbiy malakalarni o'zlashtirishga, yana boshqalari ma'lum psixologik xususiyatlarga, zarur bilim va malakalarga ega bo'lish va to'rtinchi taraf olimlar professional kompetentli o'qituvchi bo'lish uchun shaxsiy xususiyatlar muhimligini ta'kidlaganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Tayloqov N.I. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarini yangi avlodini yaratishning ilmiy pedagogik asoslari (Informatika kursi misolida): Avtoref. dis... ped fan. dok. -T.: 2006. -48 b.
2. Tayloqov N.I., Rustamov N.R. "Informatika" fanidan elektron darslik. Oliy o'quv yurtlari uchun // O'zbekiston respublikasi davlat patent idorasi. Guvohnoma DGU 01050. 13.02.2006 y.
3. Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Pedagogik dasturiy vositalar. Ma'ruza matni. motm.tma.uz/site/wr-sontent/.../09/3-2-1-MA'RUZA.pdf.
4. Н. Е. Костылева, "Восстановление дифференциальных уравнений объекта методами систем с переменной структурой", Автомат. и телемех., 1971, № 10, 64–72; Autom. Remote Control, 32:10 (1971), 1588–1595 Toshtemirov [D. E. Informatika va axborot texnologiyalari](https://uz.denemetr.com/doss/769/index-317751-1.html?page=6). Uslubiy qo'llanma. [httr://uz.denemetr.com/doss/769/index-317751-1.html?page=6](https://uz.denemetr.com/doss/769/index-317751-1.html?page=6)
5. Tursunov S. Ta'limda elektron axborot resurslarini yaratish va ularni joriy qilishning metodik asoslari. Diss.p.f.n. -T. 2011.154 b.
6. Xonboboev H.I, Shirinov F.Sh. Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda elektron resurslardan foydalanish // QDPI ilmiy xabarlar. – Qo'qon, 2021. – B. 109-111.
7. Шаматова Ю.Ю. Интернет-зависимост среди молодежи. Таврический научный обозреватель. Электронный журнал. №11(16)-ноябр 2016. Стр. 50-52. <https://cyberleninka.ru/article/n/internet-zavisimost-sredi-molodezhi>
8. Шарипов А. Как создат электронный учебник в программе TurboSite 1.7.1. <https://artursharipov.ru/article/15>